MAKTABLARDA SPORT KUNLARINI O‘TKAZISHNING METODOLOGIK ASOSLARI

Baxromov Otabek - Jizzax davlat pedagogika universiteti Jismoniy madaniyat fakulteti sport turlarini o‘qitish metodikasi kafedrasi dotsenti
Jo‘rayev Umarali - Jizzax davlat pedagogika universiteti Jismoniy tarbiya va sport mashg‘uotlari nazariyasi va metodikasi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada maktablarda sport kunlarini tashkil etishning metodologik asoslari tahlil qilinadi. Sport kunlari o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda jamoaviy ish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqotda sport tadbirlarini rejalashtirish, ularni samarali o‘tkazishning didaktik tamoyillari hamda pedagogik yondashuvlar yoritiladi. Shuningdek, sport kunlarini tashkil etishda zamonaviy texnologiyalar va innovatsion metodlardan foydalanish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Mazkur maqola maktab jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, pedagoglar va ta’lim muassasalari rahbarlari uchun foydali bo‘lishi mumkin.

Kalit so‘zlar: sport kuni, jismoniy tarbiya, metodologik asoslar, sog‘lom turmush tarzi, maktab ta’limi, pedagogik yondashuv, innovatsion metodlar, jamoaviy ish, sport tadbirlari, o‘quvchilarning jismoniy rivojlanishi.

Аннотацияв: статье анализируются методические основы организации спортивных дней в школах. Спортивные дни играют важную роль в физическом развитии учащихся, формировании здорового образа жизни, развитии навыков командной работы. В исследовании рассматриваются дидактические принципы и педагогические подходы к планированию спортивных мероприятий, их эффективному проведению. Также даются рекомендации по использованию современных технологий и инновационных методов при организации спортивных дней. Статья может быть полезна учителям физической культуры школ, воспитателям, руководителям образовательных учреждений.

Ключевые слова: спартакиада, физическое воспитание, методические основы, здоровый образ жизни, школьное образование, педагогический подход, инновационные методы, командная работа, спортивные мероприятия, физическое развитие учащихся.

Abstract: This article analyzes the methodological foundations of organizing sports days in schools. Sports days play an important role in the physical development of students, the formation of a healthy lifestyle, and the development of teamwork skills. The study covers the didactic principles and pedagogical approaches to planning sports events, their effective implementation. It also provides recommendations on the use of modern technologies and innovative methods in organizing sports days. This article may be useful for school physical education teachers, educators, and heads of educational institutions.

Keywords: Spartakiad, physical education, methodological principles, healthy lifestyle, school education, pedagogical approach, innovative methods, teamwork, sports events, physical development of students.

Maktablarda o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda jamoaviy hamkorlik ko‘nikmalarini rivojlantirishda sport muhim o‘rin tutadi. Shu nuqtai nazardan, sport kunlarini tashkil etish va o‘tkazish ta’lim jarayonining ajralmas qismi hisoblanadi. Sport kunlari nafaqat o‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish, balki ularda intizom, yetakchilik, hamkorlik va irodaviy sifatlarni shakllantirishga ham xizmat qiladi.

Ushbu maqolada maktablarda sport kunlarini o‘tkazishning metodologik asoslari tahlil qilinib, ularning samaradorligini oshirishga qaratilgan ilg‘or pedagogik yondashuvlar o‘rganiladi. Shuningdek, sport kunlarini rejalashtirish, ularni tashkil etishning didaktik tamoyillari va innovatsion texnologiyalar bilan boyitish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Maqolada sport kunlarini muvaffaqiyatli o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan metodik tavsiyalar berilib, ularning ta’lim jarayoniga ta’siri o‘rganiladi. Ushbu mavzu jismoniy tarbiya o‘qituvchilari, maktab ma’muriyati hamda ota-onalar uchun dolzarb bo‘lib, yosh avlodning sog‘lom va faol hayot tarzini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Maktablarda sport kunlarini tashkil etishning ahamiyati

Sport kunlari maktab o‘quvchilari uchun nafaqat jismoniy mashg‘ulotlar, balki ijtimoiy va psixologik rivojlanish imkoniyatlarini ham taqdim etadi. Ushbu tadbirlarning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

-O‘quvchilarning jismoniy faolligini oshirish va sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish;

-Jamoaviy ish va sport madaniyatini shakllantirish;

-O‘quvchilarda stressni kamaytirish va ruhiy salomatlikni mustahkamlash;

-Maktab jamoasi orasida sog‘lom raqobat va hamkorlikni rivojlantirish.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, muntazam sport tadbirlari bilan shug‘ullangan o‘quvchilar dars jarayonida yaxshiroq konsentratsiya qila oladi va yuqori akademik natijalarga erishadi.

Mustaqil O‘zbekiston davrida bu masalaga katta e'tibor berilmoqda. Masalan, jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risidagi Prezident qarorlari, farmonlari bunga isbot bo‘la oladi. “O‘zbekiston Respublikasida bolalar sportini rivojlantirish to‘g‘risida”gi qaror hamda “Boshlang‘ich ta’lim va sport tarbiyaviy ish” hamda “Maktabgacha tarbiya va bolalar sporti” fakultetlarida qo‘shimcha ikkinchi mutaxassislikning kiritilishi (boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi va jismoniy tarbiya o‘qituvchisi), - bolalar sportini rivojlantirishda ilgari tashlangan qadam boidi. Lekin jismoniy tayyor-garlik, musobaqalarda qatnashish ko‘nikma va malakalarini shakllantirishni eng kichik bog‘cha yoshidan boshlash kerak. Afsuski, bog‘chalarda bunga yetarlicha e’tibor berilmaydi.

Sport kunlarini o‘tkazish metodikasi

Sport kunlarini samarali tashkil etish uchun quyidagi metodik tamoyillarga rioya qilish lozim:

-Rejalashtirish va tashkiliy jarayon

-Sport tadbirlari oldindan rejalashtirilishi va maktab rahbariyati tomonidan tasdiqlanishi kerak.

-O‘quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlari inobatga olinishi lozim.

-Tadbirlar xavfsizlik qoidalariga mos ravishda tashkil etilishi kerak.

Har xil bayramlar, shu jumladan sport bayramlari ham bolalar hayotida mustahkam o‘rin egallagan. Bu bayramni bolalar yuqori darajali kayfiyat bilan kutadilar va unda ishtirok etadilar. Ma’lumki, har bir bayram jismoniy mashqlar va sport musobaqalarisiz yoki sportchilarsiz o‘tmaydi. Albatta sportchilar ham ishtirok etadilar. Ommaviy sport chiqishlari bayram sanalariga to‘g‘ri keladi. Masalan, xotin-qizlar bayrami, askarlar kuni, Navro‘z bayrami, O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik kuni va shu kabilar. Ushbu bayramlarda gimnastika chiqishlari an’anaga aylangan. Jismoniy tarbiya va sport bayramlarini maktabgacha tarbiya muas-sasalaridan boshlab, boshlang‘ich sinflarda o‘tkazilishi katta ahamiyatga ega: targ‘ibot qilish hamda sport bayramlari orqali bolalarni ommaviy jismoniy mashqlar bilan shug‘ullanishga jalb qilish va ularda qiziqish uyg‘otish masalalarini hal qiladi.

Sport bayramlarini tashkil qilish va o‘tkazish murakkab masalalardan biri. Uni tashkil qilishda bog‘cha mudirining qarori asosida tashkiliy qo‘mita tuziladi. Unga mudira muovini, metodist yoki katta pedagog (rais), jismoniy tarbiya bo‘yicha mutaxassis-tarbiyachisi, boshqa tarbiyachilar, ota-onalar qo‘mita a'zolari va boshqalar kiritiladi. Tashkiliy qo‘mita ish rejasini tuzadi, maqsad va vazifalarini aniqlaydi, o‘tkazish joyini va vaqtini belgilaydi.

Tayyorgarlik ko‘rish ishi jarayonida ota-onalardan, homiy tashkilotlardan yoki sport maktablaridan yordamchilar so‘rash mumkin. Bajariladigan har bir ishga mas’uliyat bilan qarash kerak.Eng asosiy vazifalardan biri-bu bayramli chiqishlar dasturi, jismoniy mashqlar majmuasini tuzish, har bitta guruh bilan chiqish mashqlarini o‘rganish, ayrim sport elementlarini o‘rganish, raqs mashqlarini tanlash va o‘rganish, repititsiya o‘tkazish chiqishlarni musiqaviy bezatish, sport anjomlari, uskunalar (to‘plar, gardishlar, gimnastik tayoqchalar, sharlar, arqonchalar) va sport formalarini ta'minlash hamda emblemalar tanlash. Bulardan tashqari sport bayrami o‘tkaziladigan joyni bayramona bezatish, har xil ko‘rgazmalar bilan boyitish, fotomontajlar va hokazo.

Metodik yondashuvlar

-O‘yin elementlarini qo‘llash (masalan, estafetalar, jamoaviy musobaqalar, sport festivallari);

-Differensial yondashuv (turli jismoniy tayyorgarlik darajasiga ega bo‘lgan o‘quvchilar uchun mos tadbirlarni tanlash);

-Innovatsion texnologiyalarni joriy etish (raqamli texnologiyalar orqali natijalarni kuzatish va tahlil qilish).

Innovatsion yondashuvlar va ilg‘or tajribalar

Zamonaviy texnologiyalar sport tadbirlarini samarali tashkil etishda katta ahamiyat kasb etadi. Masalan:

-Raqamli vositalardan foydalanish – Sport natijalarini kuzatish va tahlil qilish uchun mobil ilovalar va maxsus dasturlardan foydalanish.

-Gamifikatsiya – Sport tadbirlariga rag‘batlantiruvchi elementlarni kiritish, masalan, ballar to‘plash, unvonlar berish va sovrinli musobaqalar tashkil etish.

-Ekologik sport tadbirlari – Tabiyat qo‘ynida jismoniy mashg‘ulotlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning tabiatga bo‘lgan muhabbatini oshirish.

Xulosa

Maktablarda sport kunlarini tashkil etish o‘quvchilarning jismoniy va ruhiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu tadbirlar nafaqat sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, balki o‘quvchilarning ijtimoiy, psixologik va akademik rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Sport kunlarini samarali o‘tkazish uchun oldindan rejalashtirish, innovatsion metodlarni qo‘llash va o‘qituvchilarning faol ishtirokini ta’minlash muhim ahamiyatga ega.Kelajakda sport kunlarini yanada samarali tashkil etish uchun zamonaviy texnologiyalar va ilg‘or pedagogik yondashuvlardan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Ma’lumki, sog‘lom turmush tarzi, sport va jismoniy tarbiyaga ijobiy munosabat maktab yillarida qo‘yiladi. Ommaviy sport ishlari ko‘plab muhim vazifalarni hal qiladi. Ularni hal etishning muvaffaqiyati maktabda metodik ishlarni to‘g‘ri, aniq rejalashtirish va tashkil etishda maktab ma’muriyati, sinf rahbarlari,

maktab tibbiyot xodimi, ota-onalar, yuqori sinf o‘quvchilari kengashi faol ishtirok etishiga bog‘liq. Barcha darajadagi ta’lim boshqaruvining birgalikdagi faoliyatigina talaba va o‘quvchilarining salomatligini mustahkamlash, ularni sog‘lom turmush tarziga joriy etishga qaratilgan ta’lim muassasalarining ommaviy sport ishlarini malakali va maqsadga muvofiq tashkil etish imkonini beradi. Musobaqa faoliyati jismoniy tarbiya va sport hayotining eng muhim tarkibiy qismlaridan biridir. Sport va ommaviy tadbirlarni to‘g‘ri tashkil etish inson salomatligining barcha tarkibiy qismlari: jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanishiga yordam beradi. Barkamol shaxsni shakllantirish uchun nima muhimligini aniqlashtirib beradi.

Musobaqalar ishtirokchilarning dadil va qat’iy harakatlari, kurashning go‘zalligi, yuqori shiddati va oldindan aytib bo‘lmaydiganligi bilan o‘ziga jalb etadigan ko‘p millionli muxlislar armiyasi uchun ajoyib o‘yinkulgidir. O‘quvchilarning jismoniy tarbiyasi ularni uyg‘un jismoniy rivojlanishi va jismoni chiniqtirishga qaratilgan bulsa, sport bilan shugullanishda sport turi buyicha mutaxasislikka erishish va sportda yuksak natijalar kursatishga yo‘naltirilgan buladi. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sport bilan shugullanuvchilarning yoshi, jinsi, jismoniy tayyorgarliklari, sog‘lig‘i hamda qiziqishlari ham jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanishni amalga oshirishda muhim ro‘l o‘ynaydi. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida o‘quvchilarni ommaviy sport soglomlashtirish jarayoniga yo‘naltirishning asosiy maqsadi asta-sekinlik bilan ularni jismoniy kamolotga erishishi va shu asnoda hayotga, ijodiy mehnatga va vatan mudofaasiga tayorlashni nazarda tutadi. Bu jarayondagi umumiy vazifalarga bilim berish, jismonan tarbiyalash va soglomlashtirishni kiritish mumkin. Har qanday musobaqa va ommaviy sport tadbirlarining muvaffaqiyati, eng avvalo, puxta, chuqur o‘ylangan tayyorgarlikka bog‘liq. Agar musobaqa va ommaviy tadbirlar yaxshi saviyada o‘tgan bo‘lsa, unda ishtirokchilar natijalardan mamnun bo‘lishadi. Sport musobaqalari va ommaviy sport tadbirlari oxirida, keyingi tadbirlarda ĸamchiliklarni oldini olish uchun tadbir davomida sodir bo‘lgan xatolarni muhokama qilish uchun yakuniy yig‘ilishni o‘tkazish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, sport tadbirlari jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan, tarbiyaviy, tayyorgarlik va kommunikativ funktsiyalarni amalga oshiradigan faoliyatdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining 2015 yil 4 sentyabrdagi «Jismoniy tarbiya va sportni tugrisida»gi O‘RQ,-394-sonli qonuni.

2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi «Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari tug‘risida»gi PQ,-3031-sonli qarori

3.Sog‘lom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Toshkent sh.,2020 yil 30 oktyabr,PF-6099-son

4.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-martdagi “Maktablarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish va jismoniy tarbiyani rivojlantirish to‘g‘risida”gi qarori.